

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Ochilova Dilrabo Ochil qizi  
Qashqadaryo viloyati Shahrисабз tumani  
26-sonli umumta 'lim mакtabining  
Ona tili va adabiyot fani o 'qituvchisi*

### KIRISH

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangidan-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir<sup>1</sup>. Shuningdek, hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va raxonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali

Umumiy o'rta ta'limda ona tili va adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Mantiqiy va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy va badiiy tafakkurga ega shaxsni kamol toptirish ona tili va adabiyot fanining bosh maqsadidir. Allomalarimiz aytganidek: «Dunyodagi jamiki fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi». Shunday ekan, o'quvchilarni mangu el-onas zaminga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari, eng avvalo, ona tilini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Bu hol yosh avlodni kamol toptirishda ona tili va adabiyot o'qituvchisinining xizmati naqadar mas'uliyatli ekanligidan dalolat beradi. Zero, dars-muqaddas! Demak, maqsad bitta, u ham bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan ta'limtarbiya sifatini oshirib, ularda kommunikativ salohiyatni shakllantirish, mustaqil hayotda o'z fikriga, o'z so'ziga ega bo'lgan vatanimiz ertangi kunini dadil davom ettirib, yuqori marralar sari intiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir. O'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsa, ko'zlangan

<sup>1</sup> G'ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari T.: 2009

maqsad amalga oshadi. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi sanaladi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan «Aqliy hujum», «Klaster», «VENN diagrammasi», «BBB», «FSMU» kabilar dars jarayonida o'zlarining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. «Qiyoslash metodi», «Davra metodi», «6x6x6» kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor. Xususan, «Qiyoslash metodi»dan adabiyot fanida Odil Yoqubov hamda Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi o'rganilgandan so'ng mavzuni mustahkamlash uchun foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Noan'anaviy darsning asosiy yo'nalishlari:<sup>2</sup>

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- d) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- e) olgan bilimlarini amaliyatda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Noan'anaviy darslarni esa interaktive metodlar va o'yinlarsiz tasavvur etish qiyin, zero bular darsning o'zagini tashkil etadi, Misol uchun, murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzag», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kabilarning o'quv jarayonida qo'llash alohida ahamiyatga ega. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi<sup>3</sup>.

Buning uchun o'quvchilar uch guruhga bo'linib oladilar. Birinchi guruhga Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirovning hayot yo'li va bundagi o'zaro o'xshashliklar, ikkinchi guruhga ularning ijodiy merosi va yaratgan qahramonlari hamda ularning o'xhash zamонлари, uchinchi guruhga esa ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar xususida fikrlarni umumlashtirish, jamoa bo'lib taqdim qilish so'raladi. Shuningdek, ona tili fanidan «Gapning ikkinchi darajali bo'laklari» mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga «Guruhlarda ishslash metodi» asosida «Men to'ldiruvchiman!» mavzusida ijodiy matn tuzish topshiriladi. Bu topshiriq yakka tartibda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham bajarilishi mumkin. Mavzu yuzasidan matn o'quvchilar tomonidan taqdim qilinadi.

<sup>2</sup> Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.

<sup>3</sup> Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganishda innovatsion metodlar. Science and Education, 1(5).

## NATIJALAR

Bu kabi interaktiv metodlar va o'yinlarning dars davomida foydalanimishi avvalo, pedagog mahorati bilan bogliq. Sababi, metodlar darsdan bir kun oldin tayyor holga keltirilishi, kerakli ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, qisqa savoljavob va testlar, baholash mezonlarini shakllantirish shuningdek o'rganuvchilarni rag'batlantirish va jazolash maqsadga muvofiq. Har bir metod o'quvchilarning yoshi, qiziqishlari, o'gil bolalar va qiz bolalar sonining proporsiyasi, o'zlashtirish jarayoning tez yoki nisbatan sekin ekanligi, qobiliyatlari va ustunlik jihatlarini hisobga olgan holda oson va qiyin turlarga bo'lingan holda tanlanishi va tayyorlanishi muallimdan talab etiladi. Bundan tashqari 45 daqiqa davom etadigan dars mashg'ulotida harakatli o'yinlarning mavjudligi ha alohida ahamiyatga ega. Bu metod orqali o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish malakasi mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imlosi savodxonligini mustahkamlash maqsadida matn yaratish yuzasidan bir qancha qiziqarli topshiriqlar berish mumkin. Jumladan, «Morfologiya» bo'limini o'tish jarayonida har bir so'z turkumi yuzasidan grammatik ertak yaratish vazifasi topshirilsa, o'quvchilarning grammatik savodxonligi o'sish bilan bir qatorda, mantiqiy mushohada qilish qobiliyati rivojlanadi, ijodkorligi oshadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchitalabalarning o'quv-biluv faoliyatini qo'yadi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishi, iroda va faoliyatning o'quvchi ongingin predmetiga aylanishdir.<sup>4</sup>

Yangi metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish pedagoglar oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi. O'qituvchi dars jarayonida boshqa ma'lumotni berish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xhash mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil o'qishini talab darajasida shakllantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi.

«Aqliy hujum». Bu hujum ona tili va adabiyot darslarining boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin. Bu boqichda muammo o'quvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali ochiladi. «Aqliy hujum» metodi biror mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladi. «Aqliy hujum» metodi yordamida qo'yilgan muammo yuzaridan bir necha yechimlarni topish imkoniyati yuzaga keladi.

<sup>4</sup> Makhmudov, K. (2020). Integrating a Mother Tongue while Teaching a Foreign Language: Problems and Solutions. Literature and History, (1), 89-91.

## XULOSA VA MUNOZARA

Umumiy qilib aytganda, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish, eng assosiysi, o'quvchini qo'zg'atishga qaratilganligi, pedagogning o'z tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- G'ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari - T.: 2009 54-s
- Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganishda innovatsion metodlar. Science and Education, 1(5).
- Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.
- Makhmudov, K. (2020). Integrating a Mother Tongue while Teaching a Foreign Language: Problems and Solutions. Literature and History, (1), 89-91.